



Abdisharipova Shaydo Bahtiyor qizi,
University of Business and Science Toshkent filiali
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası o‘qituvchisi
 e-mail: sabdisharipova@gmail.com

JAMIYAT RIVOJLANISHIDA O‘QUVCHI YOSHLARDAGI KREATIV FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.65185/mojgo.vi.456>

Annotatsiya. Maqolada o‘quvchi yoshlarda kreativ fikrlashni shakllantirishning psixologik, pedagogik va ijtimoiy asoslari, uning tarixiy taraqqiyoti, amaliy ko‘rinishlari hamda zamonaviy jamiyat rivojlanishidagi o‘rni tahlil etiladi.

Tayanch so‘zlar: kreativ fikrlash, ijodkorlik, innovatsiya, ta‘lim, yoshlar, divergent tafakkur.

Аннотация. В статье анализируются психолого-педагогические и социальные основы формирования креативного мышления у учащейся молодежи, его историческое развитие, практические проявления и роль в развитии современного общества.

Ключевые слова: творческое мышление, творчество, инновации, образование, молодежь, дивергентное мышление.

Annotation. the article analyzes the psychological, pedagogical and social foundations of the formation of creative thinking in student youth, its historical development, practical manifestations and its role in the development of modern society.

Keywords: creative thinking, creativity, innovation, education, youth, divergent thinking.

Kreativlik – chuqurroq qidirish, e‘tiborliroq qarash, xatolarni to‘g‘rilash, mushuklar bilan suhbatlashish, chuqurlikka sho‘ng‘ish, devorlar ichra o‘tish, quyoshni yoqish, qumdan qasrlar qurish, kelajakka sayohat qilish.

Y.Torrens

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonlari, Kraqobatbardosh iqtisodiyot va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatdan kreativ fikrlovchi yoshlarni shakllantirishni talab etmoqda. Kreativ fikrlash – yangicha g‘oya yaratish,

noodatiy yechim topish, mavjud holatga innovatsion yondashish qobiliyati bo‘lib, o‘quvchi shaxsining intellektual salohiyatini kuchaytiradigan eng muhim kompetensiyalardan biridir.

Rivojlangan davlatlar tajribasi ham shuni ko‘rsatadiki, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishi yoshlarning ijodkorlik salohiyati va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini bevosita rivojlantirish bilan uzviy bog‘liq. Shu bois, O‘zbekiston ta‘lim tizimida ham kreativlikni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylangan.

XXI asrda dunyo iqtisodiyoti “bilim, innovatsiya va kreativlik iqtisodiyoti” sifatida tavsiflanmoqda. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining asosiy drayveri tabiiy resurslar emas, balki insonning ijodiy tafakkur salohiyati bo‘lib bormoqda. Bu jarayon, birinchi navbatda, o‘quvchi yoshlarning tafakkuriga ta’sir etadi, chunki maktab davri kreativlikni shakllantirish uchun eng muhim bosqichdir.

Insonning insoniyligini ifodalovchi eng muhim ijtimoiy fazilatlaridan biri hisoblangan “kreativ qobiliyat” va “kreativ tafakkur” tushunchalari insonning yuksak ijodiy imkon sohibi ekaniga dalolat qilishi bilan birga, ayni paytda shaxs mustaqilligini ifodalovchi eng muhim belgilardan biridir. Kreativ tafakkur tushunchasi tarixiy manbalarda turli xil ma’no va qarashlarni anglatib kelgan. Bu tushuncha ikki xil xususiyatga ega bo‘lgan so‘zlar birikmasidan iborat bo‘lib, o‘zida sifatlilik va miqdoriylikni mujassam etadi. “Kreativlik” uning sifatini bildirsa, “tafakkur” esa fundamental xususiyatini aks ettiradi. Shuningdek, kreativlik keng ma’noda kishining voqea va hodisalarning o‘ziga xos mohiyatini ijodiy anglashga asoslangan faoliyat hisoblanadi, kreativ tafakkur esa insonning ijodiy tafakkurini nazarda tutadi. Ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi ta’riflarda ham ikki tushuncha bir-biridan sifat va miqdor jihatidan farqlanadi. Kreativ fikrlashni rivojlantirish davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining strategik mezoniga aylangan. Misol uchun, Janubiy Koreya ta’lim tizimida kreativ fikrlash kompetensiyalari 2009-yildan boshlab davlat standartining asosiy bandi sifatida belgilangan. Singapurda esa har bir dars jarayoniga kamida bitta kreativ topshiriq majburiy qo‘shiladi. Bunday misollar kreativlikning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati naqadar yuqori ekanini ko‘rsatadi.

Maqsad va uni asoslash. Mazkur maqolani yozishdan maqsad jamiyat rivojlanishi jarayonida o‘quvchi yoshlarda kreativ fikrlashni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ta’lim muassasalarida kreativ fikrlashni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni yoritish va samarali metodlarni asoslab berishdir.

XXI asr kompetensiyalarida kreativ fikrlash asosiy ko‘nikmalardan biri sifatida belgilanmoqda. Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish jarayoni kreativ kadrlarni tayyorlashni taqozo etadi. Ta’lim jarayonida kreativ muhitni shakllantirish o‘quvchi shaxsining faolligini oshiradi. Yoshlarning mustaqil

fikrlashi, tashabbuskorligi va ijodkorligi jamiyatning madaniy-intellektual poydevorini mustahkamlaydi.

Kreativ fikrlash ta’siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya’ni har qanday shaxs, ma’lum darajada kreativ fikrlash qobiliyatiga ega. Amerikalik olim D.Veksler “Kreativlik fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo‘lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o‘ziga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi”¹, deb ta’rif beradi.

Hozirgi kunda kreativ fikrlash zamon talabidir. O‘quvchi yoshlar orasida kreativ fikrlashni shakllantirish bo‘yicha amaliy metodikalar mavjud bo‘lsa-da, quyidagi ilmiy muammolar hanz dolzarbligicha qolmoqda.

1. Kreativ fikrlashni rivojlantirishda milliy ta’lim tizimi uchun moslashtirilgan aniq metodik modelning yetishmasligi.

2. O‘quvchi psixologik xususiyatlariga mos ravishda kreativlikni rag‘batlantirish bo‘yicha o‘qituvchilar kompetensiyasining yetarli emasligi.

3. Ta’lim muassasalarida kreativ muhit shakllantirishning kompleks mexanizmlari to‘liq shakllanmaganligi.

4. Kreativ fikrlashni baholash mezonlari va indikatorlari bo‘yicha yagona ilmiy–amaliy standartning mavjud emasligi.

E.P. Torrens fikricha, “kreativlik” tushunchasi negizida quyidagilar yoritiladi:

- muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o‘zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlik.

Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin².

Umuman olganda, kreativlik – yangi, original g‘oyalarni yaratish, fikrlashning nostandart shakli, berilgan muammolarga samarali yechimlar

¹ D. Veksler, *Intellekt i kreativnost kak sostavlyayushchee*, – Moskva: UP, 2001

² Torrance, E. P. (1974). *Torrance Tests of Creative Thinking: Norms-Technical Manual*. Bensenville, IL: Scholastic Testing Service. – P. 79.

topish. Kreativ tafakkur esa revolyutsion tafakkur bo'lib, u konstruktiv xarakterni ifodalaydi. Kreativ fikrlashda ta'lim-tarbiya jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ fikrlash bugungi kunda yoshlar egallashi kerak bo'lgan muhim ko'nikmadir. Mazkur ko'nikma yoshlarga bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan, zamonaviy axborot kommunikatsiyalaridan faol foydalana oladigan, oddiy savodxonlikdan ko'ra ko'proq natija, ya'ni tashabbuskorlik talab qilinayotgan, bir so'z bilan aytganda, XXI asr ko'nikmalariga ega malakali kadrlarga talab kuchayayotgan bir paytda ushbu jarayonga moslashishiga va raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun maqolada quyidagi ilmiy yechimlar taklif qilinadi:

1. Kreativ fikrlashni rivojlantirishning mexanizmini ishlab chiqish.

O'quvchilarda kreativlikni shakllantirish uchun divergent fikrlash, muammoli vaziyat yaratish, izlanish faoliyati, loyiha asosida o'qitish kabi metodlarni integratsiyalash lozim.

2. Ta'lim jarayonida kreativ muhitni tashkil etish.

Kreativ muhit – o'quvchini erkin fikrlashga, tashabbus ko'rsatishga, xatodan qo'rqmasdan tajriba o'tkazishga undaydigan pedagogik sharoit. U quyidagilar orqali shakllantiriladi: o'quvchi tashabbusini qo'llab-quvvatlash, tanqidiy fikrlash va ijodiy izlanish mashqlarini tizimli qo'llash, rag'batlantirish turlarini individual holda tanlash.

3. O'qituvchilarning kreativ pedagogik kompetensiyasini oshirish.

O'qituvchilar innovatsion metodlardan foydalanishi, STEAM-loyihalar, klasterlar, rolli o'yinlar, akselerativ ta'lim usullarini qo'llay olishi zarur. Buning uchun, malaka oshirish dasturlarining mazmunini yangilash muhim.

4. Kreativ fikrlashni baholash indikatorlarini takomillashtirish.

Kreativlikni baholashda fluensiya (g'oya ko'pligi), fleksibilitet (moslashuvchanlik), originalitet (noyoblik), elaboratsiya (tushuntirish darajasi) kabi ilmiy indikatorlarni joriy etish taklif qilinadi.

Sharqda Ibn Sino, Beruniy, Farobiy kabi allomalar ijodiy tafakkurni ilmiy izlanishning asosiy sharti sifatida ko'rgan. Masalan, Farobiy “fikriy

izlanish insonni haqiqiy bilimga yaqinlashtiradi”, deb ta'kidlagan.

Antik davr olimlaridan Aristotel, Platon, Suqrot kabi faylasuflar ijodiy fikrlashga insonning eng oliy qobiliyati sifatida qaraganlar. Ularning fikricha, ijodkorlikni “taqliddan chiqish”, ya'ni mavjud qolipdan tashqariga o'tish jarayoni, deb ta'kidlaganlar va o'zlarining asarlarida kreativ fikrlash haqida yozib ketganlar. Bu davrda kreativlik ko'proq estetik va falsafiy qobiliyat sifatida talqin qilingan³.

Uyg'onish davri kreativ fikrlashning amaliy va tajribaviy shakllanish bosqichi bo'ldi. Bu davrdagi ijodiy tafakkurning kuchayishi va kreativ fikrlash haqida gapiradigan bo'lsak, eng avvalo, bu davrning eng ijodkor vakillari bo'lmish Leonardo da Vinchi va Mikelanjelolarning ijodlariga to'xtalmaslikning iloji yo'q. Ular kreativlikni amaliy faoliyat bilan bog'laydi. Insonning o'z imkoniyatlarini ochishi, yangi g'oyalar yaratishi va tajribalar o'tkazishi jamiyat taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi, deb hisoblaganlar. Leonardo da Vinchi o'z daftarlari orqali tajriba, kuzatish va fantaziyaning uyg'unligi kreativ faoliyatning asosiy tamoyili ekanini ko'rsatdi. U obyektlarni turli rakursdan chizish orqali kreativ tasavvurni rivojlantirgan – bu hozirgi STEAM yondashuviga juda yaqin.

XX asrda psixologiya fanida kreativlik ilmiy asosda o'rganila boshlandi. Bu davrlarda yashagan olimlardan Guilford kreativlikni “divergent tafakkur jarayoni” deb ta'rifladi⁴. Torrance esa kreativlikni o'lchash testlarini ishlab chiqdi va bu testlar orqali o'quvchilardagi kreativlik darajalarini o'lchash imkoniyati yuzaga keldi⁵. De Bono lateral fikrlash nazariyasini ilgari surdi⁶. Bu yondashuvlar kreativ fikrlashni ta'lim jarayoniga jiddiy tatbiq qilishga zamin yaratdi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar yoshlarning kreativ fikrlashini yangi bosqichga olib chiqdi. Bunga misol qilib 3D model yaratish,

³ Hasanboeva O., Yo'ldosheva Sh. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019/2020.

⁴ Guilford, J. P. Creativity. American Psychologist, 5(9), 1950. – P. 444–454.

⁵ Torrance Tests of Creative Thinking — bu Ellis Paul Torrance tomonidan yaratilib, kreativlikni, xususan o'quvchilarda divergent fikrlash asosida o'lchash imkonini bergan kreativlik testlaridir (1966 yilda Norms-Technical Manual shaklida)

⁶ De Bono, E. (1970). Lateral Thinking: Creativity Step by Step. New York: Harper & Row.

robototexnika, digital-art, onlayn tadqiqotlar, mobil ilovalar yaratish kabi jarayonlarni keltirish mumkin. Bu jarayon kreativlikni nafaqat g'oya, balki amaliy mahsulotga aylantirish imkonini berdi.

Kreativlik insonning fikrlash qobiliyatini yanada takomillashtirgan holda ijtimoiy hayotning, inson faoliyatining oliy boshqaruvchisi vazifasini bajaradi va uni ezgu amallar tomon yo'naltiradi. Bunday ijodkor inson hamisha borliq bilan uyg'un holda harakat qiladi. Fransiyalik faylasuf Anri Bergson esa "Ijodni intellektning yuqori bosqichi" deb e'tirof etadi⁷. German mumtoz faylasufi Hegel esa "Ijodiy tafakkur bir butun yaxlit obyektlarning bo'laklarga bo'linishidir"⁸, deydi. Butunni bo'laklarga bo'lish jarayonida ijodning quvvati, butunni bo'laklarga ajrata olish qobiliyatlari, o'sha bo'laklardan birining ikkinchisi bilan bog'liqligi, aloqadorligi yaqqol namoyon bo'ladi. Ijodiy tafakkurning aqlidan farqi shundaki, u, eng avvalo, yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratishni o'zida mujassamlashtiradi⁹. Hegelning bu fikrini tanqid qilib, daniyalik faylasuf Syoren Kyerkegor uning qarashlari haddan ziyod umumlashib ketganini ko'rsatib o'tadi. Haqiqatan ham Hegel o'zini butunlay umumiylikka bag'ishlagan edi. Chunonchi, rafiqasining aytishicha, uni yaxshi ko'rgan ma'lum taomi yo'q bo'lgan. Uning uchun faqat umumiy taom mavjud edi. Insonning zehni uning aqliy zukkoligi va xotirasining zarur vaqtlarda pand bermasligi bilan bog'liq bo'lib, unda inson tabiat, jamiyat to'g'risidagi fikrlarini o'z-o'zini anglash borasidagi aqliy mushohadalarini izchillik bilan ma'lum bir tartibga soladi. Shu bois, N.A. Shermuhamedova "...fandagi uzluklilik ijodiy jarayon va oldingidan mutlaqo farq qiluvchi yangi bilimning paydo bo'lishida namoyon bo'ladi", deb yozadi¹⁰.

Psixologlar fikricha, 11-17 yosh oralig'i kreativ tafakkur eng faol rivojlanadigan bosqichdir: Abstrakt fikr rivojlanadi, fantaziya kuchayadi, o'z "men"i shakllanadi, mustaqil qaror qabul qilishga ehtiyoj paydo bo'ladi. Masalan, 8-sinf o'quvchilari "Bir

shahar uchun ekologik transport modelini yaratish" topshirig'ini bajarayotganda turli g'oyalar taklif qiladi: quyosh energiyasida ishlaydigan avtobuslar, velosiped yo'laklari tizimi, elektr-skuterlar ijarasi kabi¹¹ Bu kreativlikning yosh davriga mos ravishda shakllanganini ko'rsatadi.

Kreativ fikrlashning asosiy xususiyatlari bu divergent fikrlashdir. Bu bir muammoni bir nechta yechim bilan hal qila olish qobiliyatidir. "Maktabda suv tejash muammosi yechimi" deganda bir o'quvchi quvurni almashtirishni aytsa, boshqasi suv sensori o'rnatishni, yana biri esa yomg'ir suvini yig'ish tizimini taklif qilishi – divergent fikrlashning yorqin misolidir¹².

Originallik kreativlikning asosiy mezon – odatiydan farqli, yangicha yondashuv. Masalan, bir guruh o'quvchilar matematik masalalarni yechish uchun karton 3D modellar yasab, ulardan dars jarayonida foydalanishdi. Bu nafaqat amaliy, balki original yondashuv bo'ldi¹³.

Moslashuvchan fikr (flexibility) – o'quvchining vaziyat o'zgarsa ham, yechim topish qobiliyati. Masalan, robototexnika darsida robot to'g'ri yurmay qolganda o'quvchi dasturga o'zgarish kiritishi kreativ moslashuvchanlikdir.

Kreativ fikrlashni shakllantirish bosqichlari:

1-bosqich: motivatsion bosqich – o'quvchini qiziqitirish, ichki ehtiyojni uyg'otish. Misol: "Kelajak maktabini loyihalang" topshirig'i ko'pchilik o'quvchini darhol faollashtiradi.

2-bosqich: analitik bosqich – muammoni tahlil qilish, fikrlash jarayonini boshqarish. Misol: Ekologik muammo haqida infografika tayyorlash.

3-bosqich: ijodiy g'oyalar generatsiyasi, aqliy hujum, "6 shlyapa" metodlari qo'llanadi. Misol: "Sinf uchun yil davomida energiya tejamkorlik rejasi" loyihasi.

4-bosqich: amaliyotga tatbiq – g'oyani real shaklda sinash. Misol: o'quvchilar yaratgan mini-suv filtri modeli.

¹¹ Hadimoglu G., Ozdemir E., Albayrak M. (2017). The impact of project-based learning on improving student learning outcomes of sustainability concepts in transportation engineering courses. *International Journal of Engineering Education*.

¹² B.B. Isxaqov, S.Karimboyeva., "Kreativ fikrlash" O'quv uslubiy majmua, Namangan, 2023.

¹³ Ana Barbosa va Isabel Vale tomonidan olib borilgan "Rebuilding manipulatives through digital making in teacher education" (*STEM Education*, 2025, 5(4): 515–545).

5-bosqich: refleksiya va takomillashtirish xatolar ustida ishlash, g'oyani takomillashtirish. Misol: Dastlabki robot modeli sekin ishlagan. O'quvchi esa kodni optimallashtirib, uning tezligini oshirdi.

Kreativ fikrlovchi yoshlarning jamiyat rivojiga ta'siri innovatsion iqtisodiyot uchun zamin yaratadi. Kreativ fikrlovchi yoshlar startaplarni boshqaradi, yangi texnologiyalar va eksportbop intellektual mahsulotlar ishlab chiqaradi. Ijtimoiy muammolarga effektiv yechim taklif qiladi, madaniy-ma'naviy taraqqiyotni jadallashtiradi. Shuningdek, grafik dizayn, video montaj, raqamli san'at bilan shug'ullanuvchi o'quvchilar bugungi media makonning faol ijodkorlariga aylanmoqda.

Yakuniy qism. Xulosa qilib aytganda, kreativ fikrlash jamiyat hayotida muhim o'ringa ega bo'lgan, shaxsning tafakkuri bilan bevosita bog'liq bo'lgan jarayon hisoblanib, shaxsda, ayniqsa, yoshlarda ushbu ko'nikmani shakllantirish kelgusida mamlakat taraqqiyotining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Yoshlarning kreativ fikrlashini shakllantirish va rivojlantirishda quyidagi jihatlarga ahamiyat qaratish lozim:

Birinchiidan, shaxs tarbiyasida bolalikdanoq uning fikri muhim ahamiyat kasb etishini va jamoada o'z o'rniga ega ekanini his qildirib borish.

Ikkinchiidan, bugungi kunda jamiyatda shakllangan dogmatik qarashlardan voz kechish.

Uchinchiidan, boshqaruv jarayonida avtokratik usullardan ko'ra demokratik usullarni ko'proq qo'llash.

To'rtinchidan, kreativ fikrlaydigan shaxslarning g'oyalarini va qarashlarini hurmat qilish hamda ularni qo'llab-quvvatlash lozim. Zero, jamiyatda lokomotiv sifatida har doim liderlar o'z faoliyatini amalga oshiradi. Bugungi kunda liderlarning aksariyati kreativ fikrlovchi kishilardir.

O'quvchi yoshlarda kreativ fikrlashni shakllantirish jamiyat rivoji uchun strategik ahamiyatga ega. Innovatsion iqtisodiyot, texnologik taraqqiyot va madaniy yangilanish jarayonlarida kreativ fikrlovchi avlodning o'rni benihoya muhimdir. Ta'lim tizimida kreativ muhit shakllantirish, o'qituvchilar kompetensiyasini oshirish, metodik yondashuvlarni modernizatsiya qilish hamda kreativlikni baholash mezonlarini takomillashtirish ushbu jarayonning eng samarali omillaridir. Keltirilgan ilmiy taklif va yondashuvlar o'quvchini ijodkor, tashabbuskor, mustaqil fikrlaydigan inson sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, kreativ fikrlashni rivojlantirish bugungi ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. O'quvchi yoshlarda kreativ fikrlashni shakllantirish jamiyatning har tomonlama taraqqiyotini belgilovchi omildir. Kreativlik innovatsiyalarni yuzaga chiqaradi, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, madaniy-ma'rifiy hayotni boyitadi va yoshlarning ijtimoiy faolligini kuchaytiradi. Shu sababli, ta'lim tizimida kreativ fikrlashni rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan metodlar, interfaol yondashuvlar, loyihaviy ta'lim, STEAM texnologiyalari keng qo'llanishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. B.B. Isxaqov, S.Karimboyeva, O'quv uslubiy majmua. – Namangan, 2023.
3. Hasanboeva O., Yo'ldosheva Sh. nomi bilan "Pedagogika nazariyasi va amaliyoti" kitobi / darslik sifatida tilga olingan bo'lib, Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2020.
4. Guilford J. P. The Nature of Human Intelligence. – New York, NY: McGraw-Hill Book Company, 1967. Pp. xii + 538.
5. Torrance E. P. Torrance Tests of Creative Thinking: Norms-Technical Manual. Bensenville, IL: Scholastic Testing Service, 1974. – P. 79.
6. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York, NY, USA: Basic Books, 1983. xx. – 440 p.
7. Runco M. A.. Creativity: Theories and Themes: Research, Development, and Practice (2-nashr). Amsterdam, Boston, Heidelberg, London, New York, Oxford, Paris, San Diego, San Francisco: Academic Press (Elsevier), 2014. xiii + – 520 p.
8. De Bono E. Lateral Thinking: Creativity Step by Step. New York, NY, United States: Harper & Row, 1970. – 300 p.